


«Universal Mobile Systems»
Mas'uliyati cheklangan jamiyati

Общество с ограниченной
ответственностью
«Universal Mobile Systems»

O'zbekiston, 100000
Toshkent shahri, Amir
Temur shoh ko'chasi, 24.
Tel: (+99897) 403 83 35
Faks: (+99871) 235 81 60,
e-mail: info@mobi.uz
www.mobi.uz

«TASDIQLAYMAN»

Bosh direktorning Texnika va AT bo'yicha
o'rinbosari «UNIVERSAL MOBILE
SYSTEMS» MChJ



A.R. Abdurahmanov

2026 y.

TEXNIK TOPSHIRIQ

«UMS» MChJ ehtiyojlari uchun obyektlardagi yuqori aniqlikdagi (pretsizion) konditsioner tizimlariga kafolatdan keyingi texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun

(Mas'uliyati cheklangan jamiyat «Universal Mobile Systems»)

Toshkent shahri

2026 yil

Mundarija

1. Umumiy ma'lumotlar	Ошибка! Закладка не определена.	9
1.1 Ko'rsatiladigan xizmatlar nomi		3
1.2 Ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanish asoslari va maqsadi		3
1.3 Xizmatlar ro'yxati		3
1.3.1 Uskunalarga TXK xizmatlari tarkibi		5
1.3.2 Ta'mirlash (AVR) xizmatlari		8
2. Qo'llanish sohasi	Ошибка! Закладка не определена.	
3. Ishtirokchiga umumiy talablar	Ошибка! Закладка не определена.	
4. Xizmatlarni ko'rsatish muddatlari	Ошибка! Закладка не определена.	
5. Xavfsizlik talablari		13
6. Topshirish va qabul qilish qoidalari bo'yicha talablar		14
7. Kafolat berish hajmi va/yoki muddati bo'yicha talablar		15
8. Ob'ektga eksklyuziv huquqlarni va boshqa hujjatlarni topshirish tartibi		16
9. Xodimlarni texnik o'qitish bo'yicha talablar		16
10. Qo'shimcha talablar		16
11. Qabul qilingan qisqartmalar ro'yxati		16
12. Ilovalar ro'yxati		17
13. Xizmatlar ko'rsatishda javobgarlikni taqsimlash matritsasi		17

1. Umumiy ma'lumotlar

1.1 Ko'rsatiladigan xizmatlar nomi

«UMS» MCHJ ob'ektlariga o'rnatilgan Liebert Hiross, Emerson, UNIFLAIR AMICO ishlab chiqaruvchilarining yuqori aniqlikdagi konditsioner tizimlariga (keying o'rinlarda – **Uskunalar**) kafolatdan keyingi texnik xizmat ko'rsatish (keying o'rinlarda – **TXK**) va avariya-tiklash ishlari (keying o'rinlarda – **ta'mirlash**) bo'yicha xizmatlarni taqdim etish, xizmatlarni boshqarish, diagnostika, ta'mirlash, ehtiyot qismlar bilan ta'minlash va almashtirish barchasi birgalikda **Xizmatlar** deb ataladi.

1.2 Ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanishning asoslari va maqsadi

Maqsad: Buyurtmachi muassasalarida Uskunani soz ish holatida saqlash.

Loyihani amalga oshirish uchun asos quyidagilar:

- Uskunaga kafolatdan keyingi texnik yo'rdam ko'rsatish muddati tugashi;
 - Kommutatsiya markazlari va MBD (ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari – IQO/I) da yuqori aniqlikdagi konditsionerlarning ishonchlilik va nosozliklarga chidamliligini ta'minlash;
 - «UMS» MCHJ ning iqlim uskunalarini texnik qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan byudjet mablag'larining mavjudligi.
- Mazkur xarid 2026 yil uchun tasdiqlangan xaridlar rejasi va byudjet asosida amalga oshiriladi.

1.3 Xizmatlar ro'yxati

Uskunani ta'mirlash va TXK bo'yicha joriy shartnomalar 01.09.2025 yilgacha amal qilgan. (Uskunani ta'mirlash bo'yicha shartnoma qiymati qat'iy emas, shartnomada belgilangan Xizmatlarning dastlabki umumiy qiymatini ishlab chiqish orqali aniqlanadi).

Ijrochi quyidagi xizmatlarni ko'rsatishi lozim:

№ p/p	Xizmat
Choraklik, oylik va yillik xizmatlar.	
1.1.	Kondensatorlari havo bilan sovutiladigan Liebert Hiross, Emerson ,Uniflair AMICO yuqori aniqlikdagi konditsionerlarga 1-2-jadvallarda ko'rsatilgan miqdorda rejali texnik xizmat ko'rsatish
Avariya-ta'mirlash ishlari (Ta'mirlash)	
1.2.	Kondensatorlari havo bilan sovutiladigan Liebert Hiross, Emerson , Uniflair AMICO yuqori aniqlikdagi konditsionerlarning nosozliklarini aniqlash va ta'mirlash, 1-2-jadvallarda ko'rsatilgan miqdorda.

Liebert Hiross va Emerson uskunalarining ro'yxati va miqdori

№1 Jadval

№ p/p	Nomi (Yuqori aniqlikdagi konditsioner)	Seriya raqamlar	O'rnatish manzil/Maydoni	Miqdori, dona
1.	Liebert-Hiross Himod M25UA, freon R22, kondensator HCE 49	1. 5045680005 2. 5045680003 3. 5045680008 4. 5045680007 5. 5045680006	Toshkent Mintaqaviy Ofisi, Amir Temur ko'chasi, 24, IT «S1» Server xonasi, «S1» UKT xonasi (4-qavat va yerto'la)	5
2.	Liebert-Hiross Himod S200A, freon R22, kondensator HCE 42	1. 5045720001 2. 5045720002		2
3.	Liebert-Hiross HPS 14, freon R22, kondensator HPSC14A000	1. 8867910002 2. 8868030002 3. 8867910001 4. 8868030001	Toshkent Mintaqaviy Ofisi, Amir Temur ko'chasi, 24, IT «S4» Server xonasi, «S4» UKT xonasi (3-qavat va yerto'la)	4
4.	Emerson HPM M66UA, freon R22, kondensator HBE991000G	1. 9003570001 2. 9003580002 3. 9003570002 4. 9003570004 5. 9003580001 6. 9003570003		6
			Jami:	17

Uniflair AMICO uskunalarining ro'yxati va miqdori

(№ 2 Jadval)

№ p/p	Nomi (Yuqori aniqlikdagi konditsioner)	O'rnatish manzili/Maydoni	Miqdori, dona
1.	Uniflair AMICO SDAC0601, freon R410A, CAP1011 kondensatori bilan	Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 24, 1-Apparat xonasi	7
2.	Uniflair AMICO SDAC0601, freon R410A, CAP1011 kondensatori bilan	Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 24, 2-Apparat xonasi	8
3.	Uniflair AMICO SDAC0601, freon R410A, CAP1011 kondensatori bilan	Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 24, 3-Apparat xonasi	8
4.	Uniflair AMICO SDAC0601, freon R410A, CAP1011 kondensatori bilan	Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 24, 4-Apparat xonasi	8

5.	Uniflair AMICO SDAC0601, freon R410A, CAP1011 kondensatori bilan	Toshkent sh., Uchtepa ko'chasi, 13-uy, ATS-274, 1-Apparat xonasi	6
6.	Uniflair AMICO SDAC0601, freon R410A, CAP1011 kondensatori bilan	Namangan sh., Uychinskaya ko'chasi, 2-uy, 232 (ATS224), 1-Apparat xonasi	7
7.	Uniflair AMICO SDAC0601, freon R410A, CAP1011 kondensatori bilan	Andijan sh., Chulpon prospekti, 9-uy (Aloqa uyi), 1-Apparat xonasi	7
8.	Uniflair AMICO SDAC0601, freon R410A, CAP1011 kondensatori bilan	Samarqand sh., Pochtovaya ko'chasi, 9-uy, 3-Apparat xonasi	13
9.	Uniflair AMICO SDAC0601, freon R410A, CAP1011 kondensatori bilan	Buxoro sh., I.Muminov ko'chasi, 2a-uyi, 1-Apparat xonasi	6
10.	Uniflair AMICO SDAC0601, freon R410A, CAP1011 kondensatori bilan	Navoi sh., Islom Karimov ko'chasi, 3a-uy, 1-Apparat xonasi	6
11.	Uniflair AMICO SDAC0601, freon R410A, CAP1011 kondensatori bilan	Urganch sh., Al-Beruniy ko'chasi, 1-uy, 1-Apparat xonasi	13
12.	Uniflair AMICO SDAC0601, freon R410A, CAP1011 kondensatori bilan	Karshi sh., Mustaqilik ko'chasi, 19-uy, 1-Apparat xonasi	4
13.	Uniflair AMICO SDAC0601, freon R410A, CAP1011 kondensatori bilan	Karshi sh., I.Karimov ko'chasi, 221-uy, Ofis binosi, 1-Apparat xonasi	6
14.	Uniflair AMICO SDAC0601, freon R410A, CAP1011 kondensatori bilan	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus sh., G'arezsizlik ko'chasi, 110-uy, (AMTC)	5
Jami:			104

1.3.1 Uskunaga TXK xizmatlari tarkibi

Buyurtmachining 1-2-jadvallarda ko'rsatilgan Uskuna joylashgan joyida TXK reglamenti (3-jadval) talablariga muvofiq TXK (texnik xizmat ko'rsatish) amalga oshiriladi:

№3 Jadval

№ p/p	LIEBERT HIROSS, EMERSON , UNIFLAIR AMICO konditsionerlariga TXK reglamenti CAP1011	Davriylik	Izoh
CHORAKLIK TXK DAVRIYLIGI			
1.	Tizim holatini monitoring qilish. Avariya holatlari, harorat va namlik ko'rsatkichlari.	Har chorakda	
2.	Tashqi qirilmalarni (tizimlarning) ko'zdan kechirish va ularning ishlashini tekshirish	Har chorakda	

№ p/p	LIEBERT HIROSS, EMERSON , UNIFLAIR AMICO konditsionerlariga TXK reglamenti CAP1011	Davriylik	Izoh
3.	Tizimlarning ichki qurilmalarni ko'zdan kechirish va ularning ishlashini tekshirish. Ko'rsatkichlarni sozlash (zarurat tug'ilganda)	Har chorakda	
4.	Kompressorlar va ventilyatorlarni audio-vizual (eshitish-ko'rish) nazorat qilish	Har chorakda	
5.	Fazalar bo'yicha ta'minot kuchlanishini nazorat qilish	Har chorakda	
6.	Tashvish (trevoga) signallari holatini tekshirish	Har chorakda	
7.	Xladon va moy sizib chiqish joylarini aniqlash va bartaraf etish	Har chorakda	
8.	Tizimlarning ichki qurilmalaridagi havo filtrlarining holatini tekshirish. Tozalash yoki almashtirish.	Har chorakda	
9.	Qurituvchi-filtr (filter-osushitel) kirish va chiqish joylaridagi harorat farqini (tushishini) o'lchash	Har chorakda	
10.	Havo namlagichlarining ishlashini va suv ta'minoti tizimining germetikligini (zichligini) tekshirish.	Har chorakda	
11.	Tizimning ichki bakchasidan kondensat va suv oqib chiqishi (sliv) holatini tekshirish. Tozalash (Prochistka)	Har chorakda	
12.	Favqulodda signalizatsiya tizimini tekshirish	Har chorakda	
13.	Harorat va namlik ko'rsatkichlarini tizim displeylarida ko'rsatilganlarga muvofiqligini tekshirish	Har chorakda	
14.	So'rish liniyasidagi (vassivaniya) gaz bosimi va haroratini o'lchash. Qizib ketish (peregrev) darajasini aniqlash	Har chorakda	
15.	Bug'lantirgich (isparitel) kirishidagi havo harorati va namligini nazorat qilish	Har chorakda	
16.	Bug'lantirgich (isparitel) chiqishidagi havo harorati va namligini nazorat qilish	Har chorakda	
17.	Tashqi havo kondensatorining holatini tekshirish. Tozalash, yuvish va deformatsiyalangan qovurg'alarni (orebreniye) tiklash	Har chorakda	(Yozgi vaqtda har oyda)
18.	Haydash (nagnetaniye) bosimini va kondensator chiqishidagi suyuq xladogenning haroratini o'lchash. Sovutish (pereoxlajdeniye) darajasini aniqlash	Har chorakda	
19.	Kondensator kirishidagi havo harorati va namligini nazorat qilish	Har chorakda	
20.	Kondesator chiqishidagi havo harorati va nalgini nazorat qilish	Har chorakda	
21.	Tizimlarining tashqi qurilmalarida xladon va moy sizib chiqish joylarini aniqlash	Har chorakda	
22.	Mahalliy/Masofadan boshqarish (distantcion upravleniye) tizimi ishini tekshirish	Har chorakda	
23.	Ventilyator elektr dvigatelining podshipniklari holatini nazorat qilish	Har chorakda	
24.	Ventilyator parraklarining (krilchatka) holatini nazorat qilish	Har chorakda	

№ p/p	LIEBERT HIROSS, EMERSON , UNIFLAIIR AMICO konditsionerlariga TXK reglamenti CAP1011	Davriylik	Izoh
25.	Konditsionerlarga texnik xizmat ko'rsatish (TXK) jarayonida, aniqlangan nosozliklar asosida, «Nuqsonli holat dalolatnomasi» («Akt defektatsii») tuzish.	Har chorakda	
TXKNING YILLIK DAVRIYLIGI			
26.	Choraklik texnik ko'rikning barcha reglament ishlari hajmini bajarish	Yilda bir marta	
27.	Xonadagi Freon quvurlari (freonoprovodlar) va izolyatsiyaning rezbalari birikmalari holatini tekshirish	Yilda bir marta	
28.	Elektr ta'minoti va boshqaruv zanjirlari holatini tekshirish. Kontaktlarni tortish (siqish/mahkamlash)	Yilda bir marta	
29.	Kompressor(lar)ning mahkamlanishini, ishini va iste'mol qilayotgan tokini tekshirish	Yilda bir marta	
30.	Bug'lantirgich (isparitel) ventilyatorlarining mahkamlanishini, ishini va iste'mol qilayotgan tokini tekshirish	Yilda bir marta	
31.	Dvigatel chulg'amalarining izolyatsiya qarshiligini va kompressor karteri isitgichlarining qizish haroratini tekshirish	Yilda bir marta	
32.	Termoregulirovka qiluvchi klapaning (TRV) ishini tekshirish. Juda qizish (peregrev) sozlamalarini to'g'rilash (zarurat tug'ilsa)	Yilda bir marta	
33.	Konditsionerlarning ichki qurilmalarida havo sarfini (rasxod) va sovuqlik ish unumdorligini (xolodoproizvoditelnost) aniqlash	Yilda bir marta	
34.	Kondensatsiya bosimining elektron regulyatori (variator) ishini tekshirish. Sozlamalarni to'g'rilash (korreksiyalash)	Yilda bir marta	
35.	Havo taqsimlash panjaralarini (reshetka) sozlash. Xonada havo aylanishini (tsirkulyatsiya) optimallashtirish	Yilda bir marta	
36.	Kondensator (kondensator bloklari) ventilyatorlari elektr dvigatellarining kuchlanishini tekshirish	Yilda bir marta	
37.	Binodan tashqaridagi quvurlar (truboprovodlar) va izolyatsiyaning holatini tekshirish	Yilda bir marta	
38.	Tashqi qurilmalarning quvvat simlari (silovoy provodka) holatini tekshirish	Yilda bir marta	
39.	Quvvatni avtomatik elektr uzgichlari (o'chirgichlar) va kontaktorlar ishini tekshirish	Yilda bir marta	
TXKNING QO'SHIMCHA DAVRIYLIGI			
40.	Tizimlarning ichki qurilmalari havo filtrlarining holatini tekshirish. Tozalash yoki almashtirish (zaruray tug'ilganda)	Yozgi vaqtda har oyda	
41.	Tashqi havo kondensatorining holatini tekshirish. Tozalash, yuvish va deformatsiyalangan qovurg'alarni (orebreniye) tiklash	Yozgi vaqtda har oyda	

Barcha o'lchovlar va ishlar, aniq ko'rsatkichlar ko'rsatilgan dalolatnomalar (aktlar) bilan tasdiqlanishi shart (dalolatnoma shakli 2-ilovada berilgan).

1.3.2 Ta'mirlash xizmatlari (AVR)

Uskunani ta'mirlash (AVR) bo'yicha ishlar ro'yxati 1-ilovada keltirilgan.

Narx taklifi quyidagi ko'rinishda taqdim etilishi kerak

Ish turi	Davr	Miqdor	1 oy uchun narx	Jami
Uskunaga texnik xizmat ko'rsatish (TXK) (1-jadval)	Oy	12		
Uskunaga texnik xizmat ko'rsatish (TXK) (2-jadval)	Oy	12		
Ta'mirlash (Avariya-tiklash ishlari)	1-ilova narxlar ro'yxatiga (preyskurantiga) muvofiq			

2. Qo'llanilish doirasi

Korxonaning barcha saytlarida Uskunaning ish qobiliyatini ta'minlash uchun. Xizmatlardan foydalanish joyi: lokal (mahalliy), Buyurtmachining Uskunasi joylashgan haqiqiy manzil bo'yicha (1 va 2-jadvallarga muvofiq) yoki ijrochining texnik xizmat ko'rsatish markazida. Uskunani ijrochining texnik xizmat ko'rsatish markaziga yetkazib berish va qaytarib olib kelish ijrochi hisobidan amalga oshiriladi.

3. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar

Kelajakdagi shartoma doirasida ta'mirlash (AVR) va TXK (texnik xizmat ko'rsatish) strategiyasi shunga asoslanadiki, xizmatlarning yuqori sifatiga erishishning yagona yo'li – Uskunaning xatosiz ishlashini ta'minlashga qaratilgan, Ijrochi bilan hamkorlikdagi uzliksiz maqsadli harakatlardir.

Ijrochi mazkur turdagi ishlarni bajarish huquqiga ega bo'lgan ruxsatnoma ega bo'lishi kerak. Ishlarni amalga oshirishda texnika xavfsizligi va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish majburiyati, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining atrof-muhitni muhofaza qilish va ishlarni bajarish xavfsizligiga oid talablariga rioya qilish Ijrochi zimmasiga yuklanadi. Texnik xizmat ko'rsatish (TXK) jarayonida aiqlangan kamchiliklar Buyurtmachi bilan kelishilgan muddatlarda bartaraf etilishi lozim.

Ijrochi texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini faqat malakali mutaxassislar kuchlari bilan. Buyurtmalar va belgilangan texnik talablarga muvofiq, belgilangan muddatlarda amalga oshirishi lozim.

Uskunaning normal ishida nosozliklar, buzilishlar, parametrlarida og'ishlar aniqlanganda, ular to'liq bartaraf etiladi va Buyurtmachiga to'liq ish holatida, kafolatli xizmat ko'rsatish bilan topshiriladi. Ta'mirlash ishlari yakunlangandan so'ng, Ijrochi va Buyurtmachi tomonidan imzolanadigan Ko'rsatilgan xizmatlar dalolatnomasi tuziladi. Avariya-tiklash ishlari (ta'mirlash) Ijrochi tomonidan Buyurtmachining qo'ng'iro'gi yoki yozma xabarnomasidan so'ng, ishlar ro'yxatiga muvofiq, joylashuvidan qat'iy nazar, 4-jadvalda kelishilgan vaqt ichida o'tkazilishi lozim.

Ta'mirlash ishlarini amalga oshirishda foydalaniladigan tegishli sifat va miqdordagi materiallar va sarflanadigan qismlar (rasxod qismlar) Ijrochi tomonidan taqdim etiladi. Barcha foydalaniladigan sarflanadigan materiallar yangi bo'lishi kerak. Ijrochi narx taklifida konditsionerlarga texnik xizmat ko'rsatish narxlarini taqdim etishi lozim. Avariya-tiklash ishlari 1-ilovada ko'rsatilgan narxlar ro'yxatiga (prays-list) muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu ishlar ro'yxati mazkur turdagi ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha xizmatlar va materiallarni o'z ichiga oladi.

Buyurtmachi vakillari texnik xizmat ko'rsatish ishlarining bajarilishini nazorat qilish huquqiga ega, va Ijrochi vakillari bunga to'sqinlik qilish huquqiga ega emaslar. Ishlarni bajarishda Ijrochi ichki

xonalarning pardoziiga yetkazilgan zarar (buzilishi) uchun javobgar bo'ladi. Xonaning ichki yoki tashqi pardoziiga ziyon yetkazilgan taqdirda, tiklash ishlari Ijrochi hisobidan amalga oshiriladi. To'lov xizmatlar ko'rsatilganini tasdiqlovchi barcha zarur hujjatlar topshirilgandan so'nggina amalga oshiriladi (yoki Post-to'lov faqat barcha zarur hujjatlar topshirilgandan so'ng amalga oshiriladi).

Ijrochi, Buyurtmachiga tegishli bo'lgan Uskunaga xizmat ko'rsatish bo'yicha profilaktika ishlarini Grafikka (3-jadval) muvofiq amalga oshirish majburiyatini oladi.

Ijrochi ko'rsatilgan yo'nalishda kamida 3 yillik ish tajribasiga ega bo'lishi kerak.

Ijrochi xizmatlar ko'rsatish uchun zarur malakaga ega bo'lgan mutaxassislarni shtatida saqlashi lozim.

Ijrochi ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, shuningdek, materiallar va komponentlarning zarur to'plamiga ega bo'lishi kerak (yuqori bosimli suv uskunalari, vakuumatorlar, kompressorlar va boshqalar). Ular konditsionerlarga texnik xizmat ko'rsatishda ishlatilishi va O'zStandartda tekshiruvdan (poverkadan) o'tgan bo'lishi shart.

Buyurtmachi o'ziga huquqni qoldiradi:

- shartnoma narxini o'zgartirmagan holda xizmat ko'rsatiladigan konditsionerlar sonini 10 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorda oshirish;
- shartnoma narxini o'zgartigan holda xizmat ko'rsatiladigan konditsionerlar sonini kamaytirish.
- konditsionerlarning modellarini o'zgartirish;
- obyekt manzilini viloyat/shahar chegaralari ichida o'zgartirish.

Buyurtmachi barcha o'zgarishlar haqida yozma ravishda yoki boshqa kelishilgan shaklda xabar beradi.

Ijrochi tuzilgan sharnomaga muvofiq, Buyurtmachi tomonidan qo'yiladigan hamda O'zR qonunchilik va boshqa me'yoriy talablariga mos keladigan Mehnatni muhofaza qilish va Xavfsizlik texnikasi (MMQ va XT) sohasidagi talablarga rioya qilgan holda ishlarni bajarishga majburdir.

Ijrochi majburdir:

- O'z xodimlarini zarur Shaxsiy himoya vositalari (ShHV) bilan ta'minlash va ularning ishlatilishini nazorat qilish;
- Bajarilayotgan funksiyalarga hamda Mehnatni muhofaza qilish va Xavfsizlik texnikasi (MMQ va XT) talablariga mos kelmaydigan Shaxsiy himoya vositalaridan (ShHV) foydalanmaslik;
- O'z xodimlarini ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan Shaxsiy himoya vositalarisiz (ShHV), shuningdek, nosoz, ifloslangan maxsus kiyim va maxsus poyabzallarda ishga yo'l qo'ymaslik.
- Buyurtmachi, agar ishlar Shaxsiy himoya vositalarisiz (ShHV) amalga oshirilayotgan bo'lsa, Ijrochining ish jarayonini to'xtatish huquqiga ega.
- Buyurtmachining ish jarayonlariga to'sqinlik qiladigan harakatlardan tiyilish yoki Buyurtmachi xodimlarining o'z vazifalarini bajarishiga xalaqit berishdan saqlanish, buyurtmalar bo'yicha ishlarni o'z vaqtida va sinchkovlik bilan bajarish.

4. Xizmatlar ko'rsatish muddatlari

Uskunaga texnik xizmat ko'rsatish tasdiqlangan jadvalga (3-jadval) muvofiq amalga oshiriladi. Tasdiqlangan jadval shartnoma tuzilgandan so'ng taqdim etiladi. Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlar uchun to'lov o'tkazilgan texnik xizmat ko'rsatish ishlari faktiga ko'ra, jadvalga muvofiq amalga oshiriladi.

Uskunaga texnik xizmat ko'rsatish jadvali

3-jadval

Kvartal	TXKni (Texnik xizmat ko'rsatishni) ish kunlarida o'tkazish davri	TXK turi	Izoh
1	15	Yillik (rejalashtirilgan)	
2	15	Qo'shimcha	
	15	Choraklik (rejalashtirilgan)	
3	15	Qo'shimcha	
	15	Choraklik (rejalashtirilgan)	
4	15	Choraklik (rejalashtirilgan)	

Buyurtmachi har bir chorak doirasida navbatdagi texnik xizmat ko'rsatishning aniq sanasini mustaqil ravishda belgilaydi, bunda bu sana haftaning va davrning oxirgi ish kuni bo'lmasligi shart. Buyurtmachi belgilangan sanadan kamida 10 ish kuni oldin navbatdagi texnik xizmat ko'rsatish sanasi haqida Ijrochiga majburiy tartibda xabar beradi.

Ijrochining avariya-tiklash ishlariga javob berish (reaksiya) vaqti quyida ko'rsatilgan 4-va 5-sonli jadvallarga muvofiq belgilanadi.

4-jadval

Ishlab chiqaruvchilar (savdo belgilari)		Liebert Hiross, Emerson, UNIFLAIR AMICO
№	Nomi	Qiymat / tavsif / shart
1.	BUYURTMACHIning xizmat ko'rsatish so'rovlarini qabul qilish va ro'yxatdan o'tkazish	Yagona telefon va electron pochta orqali kechayu-kunduz. So'rov kelib tushgan paytdan boshlab 15 daqiqa ichida ro'yxatdan o'tkazish.
2.	Texnik maslahatlar	Maslahatlar texnik masalalar, xususan, xizmat ko'rsatilayotgan uskunaning ish qobiliyatini tiklash, diagnostika o'tkazish bo'yicha savollarni qamrab olishi mumkin. (Telefon orqali "Ishonch telefoni")
3.	Xizmatlar ko'rsatish vaqti	Rejalashtirilgan – ish vaqti davomida soat 9:00 dan 18:00 gacha, favqulodda (ekstremal) – murojaat qilingan paytdan boshlab 2 soat ichida. Avariya-ta'mirlash – haftada 7 kun, 24 soat.
4.	Reaksiya vaqti	Rejalashtirilgan – Buyurtmachi tomonidan TXK (Texnik xizmat ko'rsatish) arizasida ko'rsatilgan muddatlarga muvofiq, uskunaga texnik xizmat ko'rsatishni bajarishga kirishish. Avariya-ta'mirlash – Buyurtmachining murojaati kelib tushgan paytdan boshlab 8 (sakkiz) ish soati ichida (dam olish va bayram kunlarini hisobga olmagan holda) mutaxassisning BUYURTMACHIGA yetib kelishini ta'minlash. Favqulodda (Ekstremal) – BUYURTMACHIning murojaati kelib tushgan paytdan boshlab 2 (ikki) soat ichida mutaxassisning BUYURTMACHIGA yetib kelishini ta'minlash

5.	Yillik (rejalashtirilgan) texnik xizmat ko'rsatish	Har bir konditsionerning yillik texnik holatini tekshirish, profilaktika ishlarini o'tkazish, uskunani ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan texnik xizmat ko'rsatish talablariga (TX bandi 6) va BUYURTMACHI bilan kelishilgan texnik xizmat ko'rsatish grafigiga muvofiq, ishlatish muddati cheklangan sarflanadigan materiallar, ehtiyot qismlar va qismlarni rejali almashtirish. Ishdagi uzilish 2 soatdan oshmasligi kerak. Ishlarni o'tkazish vaqti BUYURTMACHI bilan kelishiladi.
6.	Oylik (rejalashtirilgan) texnik xizmat ko'rsatish	Oylik profilaktika ishlari (havo filtrlarini tozalash va kondensatorlarni yuvish) uskunani ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan texnik xizmat ko'rsatish grafigiga (TX bandi 5) muvofiq amalga oshiriladi. Ishdagi uzilish 2 soatdan oshmasligi kerak. Ishlarni o'tkazish vaqti Buyurtmachi bilan kelishiladi
7.	Choraklik (rejalashtirilgan) texnik xizmat ko'rsatish	Har choraklik har bir konditsionerning texnik holatini tekshirish, uskunani ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan texnik xizmat ko'rsatish talablariga va Buyurtmachi bilan kelishilgan texnik xizmat ko'rsatish grafigiga muvofiq, ishlatish muddati cheklangan sarflanadigan materiallar, ehtiyot qismlar va qismlarni rejali almashtirish. Ishdagi uzilish 2 soatdan oshmasligi kerak. Ishlarni o'tkazish vaqti Buyurtmachi bilan kelishiladi.
8.	Ta'mirlash	Ehtiyot qismlar va sarflanadigan materiallar mavjud bo'lgan taqdirda, qismlar va uzellarning ishdan chiqishi tufayli uskunaning ish qobiliyatini tiklash 2 sutkadan oshmasligi kerak.

"Buyurtmachi"dan quyidagi toifalar bo'yicha ariza kelib tushganda "Ijrochi"ning reaksiya (javob berish) vaqti:

5-Jadval

Avariya toifasi	Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlar	Reaksiya vaqti		Izoh	Jarima
		Vaqtinchalik yechimni taqdim etish uchun	Muammoni bartaraf etish uchun		
1	Texnologik xonada haroratning 30°C gacha ko'tarilishi. MMT (Ma'lumotlarni Markazlashgan Ombori) ning texnologik jarayonlari to'xtab qolish xavfi.	1 soat	12 soat	Tizim qismlarining nosozligi/shikastlanishi, sovutish agenti (xladagent) trassalarining shikastlanishi, bu esa iqlim tizimining to'liq to'xtab qolishiga olib keladi.	Agar javob berish (reaksiya) vaqti 2 soatdan oshsa, har bir boshlangan 5 daqiqa uchun jarima umumiy oylik to'lovning 0,2% ni tashkil etadi, biroq joriy davr summasining 10% dan oshmasligi kerak.

Avariya toifasi	Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlar	Reaksiya vaqti		Izoh	Jarima
		Vaqtinchalik yechimni taqdim etish uchun	Muammoni bartaraf etish uchun		
2	Avariya texnologik xonada haroratning keskin ko'tarilishiga olib kelmaydi, biroq konditsionerlik tizimining ishonchliligi ko'rsatkichlarini yomonlashtiradi.	6 soat	24 soat*	<ul style="list-style-type: none"> - Konditsionerlash bloklaridan birining ishdan chiqishi. - Konditsionerlash tizimining ayrim qismlari (uzellari) ishining buzilishi. - Ulagich (qo'shish) liniyalari, raz'eglarning buzilishi. - Asboblarni yerga ulash (zazemleniye) ishonchliligining buzilishi. - Tashqi belgilar (yorug'lik, diodlarning miltillashi, ovozli signallar berish) orqali kuzatiladigan buyumlarning ish qobiliyatining buzilishi. 	

Avariya toifasi	Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlar	Reaksiya vaqti		Izoh	Jarima
		Vaqtinchalik yechimni taqdim etish uchun	Muammoni bartaraf etish uchun		
3	Konditsionerlash tizimining ishonchlilik ko'rsatkichlarini yomonlashtirmay digan mayda avariyaalar.	12 soat	24 soat*	<p>- Korpuslarning va boshqa mahsulot elementlarining yaxlitligi buzilishi.</p> <p>- N+1 ish rejimida zaxira konditsioner bloklarining ish qobiliyati buzilishi, bu konditsionerning ayrim qismlari (uzellari) qisman yoki to'liq to'xtab qolishiga olib keladi.</p> <p>- Tashqi belgilar (yorug'lik, diodlarning mittillashi, ovozlar berish) orqali kuzatiladigan mahsulotlarning ish qobiliyatining buzilishi.</p>	

* - Zaruriy ehtiyot qismlar yoki materiallar mavjud bo'lmagan taqdirda, ta'mirlash muddati ularni sotib olish vaqtiga mutanosib ravishda suriladi.

Avariya-tiklash ishlari quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Avariya holati yuzaga kelganda, Ijrochi Buyurtmachidan arizani qabul qiladi va 5-jadvalda ko'rsatilgan vaqt oralig'ida, o'zining materiallari va asboblardan foydalangan holda, Uskunaning ish qobiliyatini tiklash bo'yicha xizmatlar majmuini bajaradi. Zarar bartaraf etilganidan so'ng, bajarilgan ishlar va sarflangan resurslar hamda materiallar ro'yxati ko'rsatilgan holda, 1- Ilovaga muvofiq, zararni bartaraf etish to'g'risidagi dalolatnoma (akt) tuziladi. Ushbu dalolatnoma asosida ko'rsatilgan xizmatlar uchun buyurtma tuziladi.

5. Xavfsizlikka qo'yiladigan talablar

Ijrochi Buyurtmachi ob'ektlarida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarning me'yoriy hujjatlar talablariga, shuningdek, Buyurtmachining lokal me'yoriy hujjati hisoblanuvchi yo'riqnoma qoidalariga muvofiq bajarilishini ta'minlashi shart.

Ijrochi O'zbekiston Respublikasi mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik talablariga, mehnat muhofazasi bo'yicha qoidalar, me'yorlar va yo'riqnomalarga rioya etilishi uchun shaxsan javobgardir.

Ijrochi o'z xodimlarining, subpudrat tashkilotlari xodimlarining sog'lig'i va xavfsizligi uchun shaxsan javobgar bo'ladi, jumladan, ajratilgan maydon/uchastkada bajarilayotgan harakatlar bo'yicha ularning to'liq xabardorligi va nazoratini ta'minlaydi.

Ijrochining xodimlari mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomadan o'tgan, maxsus kiyim, maxsus poyabzal va boshqa shaxsiy himoya vositalari (ShHV) bilan ta'minlangan bo'lishlari, ishchi kasblar bo'yicha o'qitilganlikni va ishga qo'yilishni tasdiqlovchi malaka guvohnomalariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida belgilangan mehnat muhofazasi talablari bo'yicha bilimlarini attestatsiyadan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomalarga ega bo'lishlari lozim.

Ijrochining barcha asboblari, uskunalari, qurilmalari, texnikasi soz holatda va foydalanishga yaroqli bo'lishi, belgilangan maqsadda qo'llanilishi, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq sinovdan o'tgan va tekshirilgan bo'lishi lozim. Ishlash uchun mo'ljallangan asbob uchqun chiqarmaydigan (iskro xavfsiz) bo'lishi kerak. Buyurtmachi vakili Ijrochining barcha asboblari, moslamalarini, uskunalarini, qurilmalarini, texnikasini tekshirish (inspeksiya qilish) huquqiga ega.

Kompaniya hududida va ob'ektlarida ishlar/xizmatlar bajarilayotganda yuz bergan hodisalar va insidentlar to'g'risida ma'lumot taqdim etish. Barcha hodisalarni hisobga olish, qayd etish va tergov qilish uchun zarur tizimlarni ta'minlash. Ish joylarida yuz bergan har qanday hodisalar, baxtsiz hodisalar yoki jabrlanganlar haqida Buyurtmachiga belgilangan muddatda ma'lumot taqdim etish, oldindan o'rnatilgan aloqa kanallari orqali Buyurtmachi bilan hamkorlik qilish va barcha baxtsiz hodisalar hamda insidentlarni tergov qilishda ko'maklashish.

Buyurtmachining mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi masalalari bo'yicha Ijrochi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish majburiyati yuklangan mas'ul shaxslari yuqorida sanab o'tilgan talablarga rioya etilishini tekshirish huquqiga ega bo'lib, Buyurtmachi va Ijrochi xodimlarining hayoti va sog'lig'iga xavf tug'diradigan talablardan chetga chiqish holatlari aniqlanganda, Buyurtmachi Ijrochining mas'ul vakiliga qoidabuzarlikni bartaraf etish to'g'risida yozma ko'rsatma yuboradi, bunda qoidabuzarliklarni zudlik bilan bartaraf etish va tegishli hisobot ma'lumotlarini taqdim etish talab qilinadi.

Agar Ijrochi mehnatni muhofaza qilish va yong'in xavfsizligi qoidalari va me'yorlari talablarini qo'pol ravishda buzish to'g'risidagi yozma ko'rsatmani yoki og'zaki ogohlantirishni bajarmasa, bu ishlab chiqarishda baxtsiz hodisaga, yong'inga, avariya va boshqa favqulodda vaziyatlarga olib kelishi mumkin bo'lsa yoki olib kelgan bo'lsa, Buyurtmachining mas'ul vakillari xizmat ko'rsatishni to'xtatish huquqiga ega.

6. Topshirish va qabul qilish qoidalariga qo'yiladigan talablar

Xizmatlar ko'rsatish boshlangan paytdan boshlab, Tomonlar Xizmatlar ko'rsatish davomida yuzaga keladigan tashkiliy va texnik masalalarni hal qilish uchun mas'ul vakillarni tayinlaydilar va bu haqda bir-birlarini yozma shaklda xabardor qiladilar.

Xizmatlar ko'rsatish yakunlangandan so'ng, Ijrochi Buyurtmachini Xizmatlar ko'rsatish tugaganligi haqida xabardor qiladi.

Buyurtmachi ularni (xizmatlarni yakunlash haqidagi xabarnomani) olgan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida texnik topshiriq (TT) ga muvofiq, bajarilgan (ko'rsatilgan) Xizmatlarning talablarga vizual mosligi/nomosligi yuzasidan kompleks tahlil o'tkazadi.

Buyurtmachi ko'rsatilgan Xizmatlarning sifatini tekshirish va Xizmatlar lozim darajada ko'rsatilmaganligini aniqlash huquqiga ega. Xizmatlar lozim darajada ko'rsatilmaganligi aniqlangan taqdirda, Buyurtmachi ko'rsatilgan Xizmatlar aktini imzolashdan bosh tortish huquqiga ega bo'lib, bunda Xizmatlardagi kamchiliklar (nuqsonlar) ro'yxati ko'rsatilgan holda Ijrochiga yozma asosli rad javobini taqdim etadi.

- Buyurtmachining talabi bilan Ijrochi 2 (ikki) ish kunidan kechiktirmay o'z hisobidan Xizmatlarning barcha kamchiliklarini (nuqsonlarini) bartaraf etishi va Xizmatlar natijasini Buyurtmachiga qayta topshirishi shart.

- Agar Xizmatlarni qabul qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklar (nuqsonlar) belgilangan muddatda bartaraf etilmasa, Buyurtmachi shartnomani bajarishdan bosh tortish va Xizmatlarni lozim darajada bajarmaganlik (sifatsiz bajarganlik) uchun jarima to'lashni talab qilish huquqiga ega.

Xizmatlar lozim darajada ko'rsatilgan (Texnik topshiriq (TT), Buyurtma va Buyurtmachi talablariga muvofiq) taqdirda, Ijrochi va Buyurtmachi vakillari tomonidan Ko'rsatilgan xizmatlar dalolatnomasi va hisob-faktura imzolanadi.

Tegishli Ko'rsatilgan xizmatlar akti imzolangan paytdan boshlab, Buyurtma bo'yicha Xizmatlar Ijrochi tomonidan bajarilgan va Buyurtmachi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi.

Ko'rsatilgan xizmatlar aktini imzolash Ijrochining Xizmatlar qabul qilingandan so'ng kafolat muddati ichida aniqlangan kamchiliklar (nuqsonlar), shu jumladan yashirin kamchiliklar uchun javobgarligidan ozod qilmaydi

Texnik xizmat ko'rsatish va avariya-tiklash ishlari bo'yicha Xizmatlar bajarilgan ishlar to'g'risidagi foto hisobot (texnik xizmat ko'rsatishdan oldin, davomida va keyin kamida 3 ta fotosurat) hamda imzolar qo'yilgan ko'rsatilgan xizmatlar akti taqdim etilgandan so'ng qabul qilingan hisoblanadi. Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha Xizmatlar va Ijrochining Ko'rsatilgan xizmatlar aktlari bilan tasdiqlanadi, texnik xizmat ko'rsatish (TXK) va avariya-tiklash ishlari (ATI) o'tkazilganligi fakti Dalolatnomaga qo'yilgan imzo bilan tasdiqlanadi:

1. Tegishli Hududiy aloqa bog'lamasining (HAB) texnik bo'limining tegishli yo'nalishdagi mutaxassisi;
2. Tegishli Hududiy aloqa bog'lamasining (HAB) texnik bo'limi boshlig'i;
3. Tegishli Aloqa bog'lamasi (AB) rahbari;
4. Tegishli departamentning mas'ul bo'linmasi xodimi va/yoki tegishli bo'lim/departamentning texnik nazorat xodimi;
5. Tegishli departamentning mas'ul bo'linmasi boshlig'i.

7. Kafolat hajmi va/yoki muddati bo'yicha talablar

Ijrochi ko'rsatilgan xizmatlar sifatiga kafolatni to'liq hajmda taqdim etadi. Ko'rsatilgan xizmatlar sifati kafolatini taqdim etish hajmi deganda, kafolat majburiyatlari kuchga kirgan taqdirda, materiallar, uskunalar va ko'rsatilgan xizmatlarning yig'indisi tushuniladi. Agar ko'rsatilgan xizmatlar sifati bo'yicha shartnoma talablariga, ushbu texnik topshiriqqa va ijrochining sifat bo'yicha o'z takliflariga mos kelmasa, ijrochi shartnomaga muvofiq miqdorda kafolatli to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi. Ijrochining xizmatlar sifati kafolati hajmi bo'yicha mulkiy kafolatlari shartnoma muddati yoki kafolat muddati davomida kamchiliklar aniqlangan va xizmat sifatining shartnoma talablariga hamda ijrochining sifat bo'yicha o'z takliflariga nomuvofiqligi faktlari aniqlangan xizmatlarga (xizmat bosqichlariga) nisbatan qo'llaniladi.

Avariya-tiklash ishlari (ATI) davomida ishlatilgan materiallarning kafolat muddati 1 (bir) yilni tashkil etadi.

12 (o'n ikki) oylik kafolat muddati – ehtiyot qismlarni almashtirish va ta'mirlangan (tuzatilgan) uzellar bo'yicha ishlarga ta'mirlash ishlari bajarilgan kundan va bajarilgan ishlarni qabul qilish-topshirish Dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab belgilanadi.

Almashtirilgan detallar va qismlarning kafolat muddati (agar mavjud bo'lsa) detallar va qismlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan kafolat muddatidan kam bo'lmasligi kerak.

Ijrochi sotib olingan va yetkazib berilgan ehtiyot qismlar, uzellar, detallar va materiallarga zavod-ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan davomiylikdagi kafolat muddatini, Buyurtmachi tomonidan "Tegishli davr uchun bajarilgan ishlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi" tasdiqlangan sanadan boshlab hisoblab, belgilaydi. Kafolat muddati Uskuna (Jixoz) unda yuzaga kelgan nosozliklar tufayli foydalanib bo'lmaydigan bo'lgan vaqtga uzaytiriladi.

Kafolat muddati davomida ko'rsatilgan Xizmatlarning kamchiliklari (nuqsonlari) aniqlangan taqdirda, Ijrochi Buyurtmachining talabi bilan ularni Buyurtmachi tomonidan tegishli talab qo'yilgan paytdan boshlab 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay o'z hisobidan bartaraf etishi shart (boshqa muddat Tomonlarning kelishuvi bilan belgilanishi mumkin).

8. Ob'ektga nisbatan mutlaq huquqlar va boshqa hujjatlarni topshirish tartibi

Talablar qo'yilmaydi.

9. Xodimlarni texnik o'qitish bo'yicha talablar

Talablar qo'yilmaydi.

10. Qo'shimcha talablar

Texnik xizmat ko'rsatish (TXK) va ta'mirlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning majburiy sharti Buyurtmachining amaldagi ichki tartib qoidalariga, nazorat-o'tkazish rejimiga, ichki nizomlariga, yo'riqnomalariga va Buyurtmachi tomonidan Ijrochiga ma'lum qilinadigan talablariga rioya qilishdir. Buyurtmachi Ijrochiga bildirilgan muammolarni hal qilish bo'yicha Ijrochi bilan aloqada bo'lishga vakolatli bo'lgan xodimlar ro'yxatini va aloqa ma'lumotlarini taqdim etadi.

Aloqa ma'lumotlari o'zgargan taqdirda, Ijrochi bunday o'zgarishlardan kamida 3 (uch) kun oldin Buyurtmachiga tegishli xabarnoma yuborishi shart.

Uskunani ta'mirlashda almashtiriladigan butlovchi qismlar yangi bo'lishi (ishlatilmagan, iste'mol xususiyatlari tiklanmagan) hamda almashtirilayotgan qismlarning texnik ko'rsatkichlariga mos kelishi yoki ulardan yuqori bo'lishi kerak.

Ijrochi tomonidan Mehnatni Muhofaza qilish va Texnika Xavfsizligi (MM va TX) sohasidagi talablarni qo'pol, muntazam ravishda buzish shartnoma munosabatlarini Ijrochi bilan bekor qilish uchun asos bo'lishi mumkin.

11. Qabul qilingan qisqartmalar ro'yxati

№ p/p	Terminlar, qisqartmalar	Qisqartmaning kengaytmasi (yoki izohi)
1	Buyurtmachi	ООО «УМС»
2	Ijrochi	Ochiq takliflar so'rovi natijalariga ko'ra aniqlanadigan pudrat tashkiloti
3	AVR	Avariya-tiklash ishlari

12. Ilovalar ro'yxati

№ p/p	Ilovaning nomi	Sahifa raqami / Varaqlar soni
1	1 – Ilova Aniq (pretsizion) konditsionerlash tizimlarini ta'mirlash uchun sarflanadigan materiallar, ehtiyot qismlar va ta'mirlash ishlarining ro'yxati	16/20
2	2 – Ilova Uskunaning holatini tekshirish dalolatnomasi	32/1
3	3 – Ilova Texnik xizmat ko'rsatishni o'tkazishga (amalga oshirishga) qo'yiladigan talab	38/2
4	4 – Ilova Bajarilgan ishlarning tarixiy hajmi.	40/13

13. Xizmatlar ko'rsatishda javobgarlikni taqsimlash matritsasi

Javobgarlik	Ijrochi	Buyurtmachi/ OOO «UMS»
Kelishilgan profilaktika ishlari jadvali	X	X
O'z vaqtida xizmat ko'rsatish	X	
Sifatli xizmat ko'rsatish (SLA)	X	
Ijrochiga Buyurtmachi ob'ektlariga kirishni ta'minlash		X
Buyurtmaning bajarilishi to'g'risida ma'lumot (qayta aloqa)	X	
Arizani yopish uchun zarur hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etish	X	

Kelishildi:

TB TFD Direktori

TB TFD Direktori o'rinbosari

TB TFD Bosh energetik

TB TFD BEB Konditsionerlash guruhi rahbari

TB TFD BEB Konditsionerlash guruhi yetakchi mutaxassis

TB LBD Loyihalarni boshqarish bo'limi boshlig'i

TB ATD ITIEQB boshlig'i

B.X. Usmanov

D.A. Atametov

Ya.S. Karabaev

A.V. Kojuxov

A.A. Dikov

B.X. Otaboev

N.F. Sadikov

1-sonli ilova

1. Pretsion (Aniq) konditsionerlash tizimlarini ta'mirlash uchun sarf materiallari, zaxira qismlari va ta'mirlash ishlari ro'yxati

1.1. Liebert Hiross va Emerson (ATD TB) uskunolari uchun sarf materiallari, zaxira qismlari va ta'mirlash ishlari ro'yxati:

№ p/p	Uskunaning nomi	Model	O'lchov birligi	QQSsiz, so'mda sarf materiallari va zaxira qismlarining narxi. (bir o'lchov birligi uchun)	Uskunani ta'mirlash ishlarining narxi (bir o'lchov birligi uchun)	Uskunani almashtirish ishlarining narxi (bir o'lchov birligi uchun)
1	2	3	4	5	6	7
1.	Avtomatik o'chirgichni almashtirish	Chint 10a 6ka 1p c	dona			
2.	Avtomatik o'chirgichni almashtirish	Merlin gerin 6a 10ka d	dona			
3.	Avtomatik o'chirgichni almashtirish	Merlin gerin 6a 6ka d	dona			
4.	Avtomatik o'chirgichni almashtirish	Chint 10a 6ka 3p c	dona			
5.	Avtomatik o'chirgichni almashtirish	Merlin gerin 16a 10ka d	dona			
6.	Avtomatik o'chirgichni almashtirish	Chint 16a 10ka d	dona			
7.	Avtomatik o'chirgichni almashtirish	Chint 20a 6ka 3p d	dona			
8.	Avtomatik o'chirgichni almashtirish	Merlin gerin 20a 6ka d	dona			
9.	Avtomatik o'chirgichni almashtirish	Chint 6a 6ka 2p c	dona			
10.	Avtomatik o'chirgichni almashtirish	Merlin gerin 6a 6ka	dona			
11.	Avtomatik o'chirgichni almashtirish	Merlin gerin 6a 6ka c	dona			
12.	Avtomatik o'chirgichni almashtirish	Chint 25a 6ka 3p c	dona			
13.	Avtomatik o'chirgichni almashtirish	Merlin gerin 16a 6ka c	dona			

